

O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR

Mamataliyev O'tkir Ashurovich

Termiz muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti akademik litseyi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayonida joriy etish ko'lamini kengaytirish, bu yo'nalishda ilg'or tajribalardan foydalanish, har bir fan bo'yicha bu soxada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, ilmiy innovatsion ta'lim texnologiyalarning keng joriy etilish orqali ta'limda sifatini yanada oshirishdan iboratligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, metodik dastur, pedagogik amaliyot, pedagogik tajriba, virtual stend.

“Инновацион таълим технологиялари” ўқув модулининг ўқитилаётганлиги педагог кадрларни замонавий инновацион таълим технологияларининг ташкилий, техник ва дидактик имкониятларидан хабардор бўлишлари, таълим амалиётида ўқитишнинг инновацион технологияларидан фойдаланиш, компетентлик сифатлари ва креативлик қобилиятини изчил ривожлантириб бориш кўникма-малакаларини ҳосил қилиш учун шароит яратиш қолмай, касбий фаолиятда улардан самарали фойдаланиш борасидаги малакаларининг мустаҳкамланишини ҳам таъминлайди. Айтиш керакки, “Инновацион таълим технологиялари” ўқув модули олий таълим педагогларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш курсларида тингловчилар томонидан ўзлаштирилаётган касбий билим, кўникма, малака ва компетентлик сифатларини янада ривожлантириш, кенг қўламли илмий-тадқиқотларни олиб бориш, кучли рақобат мавжуд бўлган меҳнат бозорида ўз ўринларини сақлаб қолишларига ёрдам беради. “Инновацион таълим технологиялари” модулининг мақсади: педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш курс тингловчиларини инновацион таълим технологиялари, ўқитишнинг инновацион шакл, метод ва воситалари, педагогик компетентлик сифатлари ҳамда таълим жараёнини ташкил этишга креатив ёндашишга доир билимларини такомиллаштириш асосида улар томонидан инновацион ёндашув, педагогик компетентлик сифатлари ва креатив қобилиятнинг самарали ўзлаштирилиши учун зарур шарт-шароитни яратиш.

“Инновацион таълим технологиялари” модулининг вазифалари:

- инновацион таълим технологияларининг ўзига хосликлари ва қўлланилиш соҳаларини аниқлаштириш;

- тингловчиларда инновацион характерга эга педагогик фаолиятни ташкил этиш;
 - уларда педагогик жараёни самарали ташкил этишда турли инновацион таълим технологиялари: амалий ўйинлар, муаммоли ўқитиш, интерфаол таълим, модулли-кредит тизими, blended learning (аралаш ўқитиш), case study (кейс стади), масофали ўқитиш, маҳорат дарслари, вебинар ва ассесмент технологияларидан ўринли, мақсадли фойдаланиш кўникма-малакаларини ривожлантириш;
 - тингловчиларнинг ўқув лойиҳаларини ишлаб чиқиш, портфолиоларни шакллантириш ва амалиётга татбиқ этиш малакаларини такомиллаштириш;
 - тингловчиларда педагогик компетентлик сифатларини янада ривожлантириш;
- 8
- ОТМ педагогарида ўқув машғулотлари, маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этишга креатив ёндашиш кўникма-малакаларини такомиллаштириш

Ўқув модули доирасида тингловчилар инновацион таълим технологияларининг моҳияти, назарий асослари, самарали шакл, мето ва воситалари билан танишади, касбий фаолиятда педагогик технологияларни самарали, мақсадли қўллаш малакаларига эга бўлади, таълим жараёнини оқилона лойиҳалаштиришга доир тажрибаларини янада бойитади. Шунингдек, тингловчилар педагогик инновацияларни асослаш, яратиш ва амалиётга самарали татбиқ этиш йўлларида хабарор бўлади, инновацион характерга эга муаллифлик дастурларини ишлаб чиқиш малакаларини муваффақиятли ўзлаштиради. Бу эса ўз навбатида ўқитиш жараёнида талабаларнинг фаолликларини таъминлаш, таълим сифатини яхшилаш, самарадорликни оширишда му Uzluksiz ta`lim tizimida davlat buyurtmasi va ijtimoiy talabga muvofiq har bir ta`lim muassasasi va unda xizmat qiluvchi pedagog-kadrlar zimmasiga ta`lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ilm-fanning so`ngi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma`naviyatli, kasb-hunarli, el-yurtga sadoqatli milliy va umuminsoniy qadiriyaatlari ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat, va oila oldida o`z burch va javobgarligini his eta oladigan, raqobatdosh barkamol shaxsni tarbiyalash va kamolga yetkazish muhim vazifalarni amalga oshirish ko`zda tutilgan Ta`lim jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish mehanizimlarini mutaxassislar quydagicha bayon qilishgan: Pedagogik jamoani yangi pedagogik texnologiya asoslari bilan tanishtirish-ma`ruza. adabiyotlar tavsiya etish. Yangi texnologiya asosida ishlashni hohlovchi pedagoglar jamosini aniqlash. Ular orqali o`qituvchilarga pedagogik texnologiyani qo`llashdan ko`zda tutilgan maqsadni,

uning mohiyatini yetkazish. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlashni hohlovchi pedagoglar shu jarayonga tayyorlash yuzasidan quyidagi tashkiliy jarayonlar asosida ishlaydi seminar; trening; individual maslaxat berish; ko`rgazmali darslar tashkil etish.

Yangi pedagogik texnologiya asosida talabalarning ishini nazorat qilish, kuzatuv va taxlil o`tkazish, metodik yordamlar ko`rsatish, ularni hisobotlarini eshitib borish. Yangi pedagogik texnologiya asosida ishlovchi o`qtuvchilarning metodika kengashida, pedagogik kengashlarida chiqishini tashkil etish. Yangi pedagogik texnologiya bo`yicha ishlash uchun zarur didaktik va tarqatma materiallar, vositalar xonasini tashkil qilish. Yangi texnologiya bo`yicha ishlashning afzalliklarini, o`quvchilar, ota-onalar, pedagogik jamoa tomonidan qo`llab-quvvatlanishini oshkor etib boorish. Ilg`or, novator pedagoglardan novator pedagogik jamoani shakllantirish. Yangilanish uzluksizligi, davomiyligini ta`minlash.

Pedagogik faoliyatda qo`llaniladigan har qanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruriyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muxim ahamiyatiga ega.

Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish, ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish jarayonida amalga oshiriladigan tashkiliy va metodik tadbirlar orasida tajriba-sinovlarni tashkiliy qilish va o`tkazish muhim bosqich hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tajriba-sinov o`tkazishning asil mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo`naltirilgan yangi yo`nalish, mazmun, va xulosalar mavjud. Masalani aniq tasavvur qilishda uchun asosiy tushunchalarning ta`riflarini aniqlab olish lozim. Tajriba-sinov bu- shunday tafakkur metodi bo`lib, uning yordamida tabiiy yoki su`niy tarzda yaratiladigan, nazorat qiladigan, eng muhim tushunchalarni bilish amalda sinab ko`riladi.

Pedagogik tajriba-sinov bu- ilmiy-pedagogik tafakkur metodi bo`lib, pedagogic omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar va metodik yondashuvlar orasidagi sabab oqibatli aloqadorligini aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkoniyatini beradigan tadbirlar.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish uning tizimlarini integratsi-yalashtirish va ular o`rtasidagi eng muhim qonuniy bog`lanishlarni aniqlash.

Nazariy metod-pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, uning tizimlarini hisobga olish muhim darajada asos bo`lib hosil qilish ma`nosida muhim qonuniy bog`lanishlarni aniqlash.

Ta'lim-tarbiya muassasalarni faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarga yordam beradi.

Pedagogik amaliyotda pedagogik jarayonning moddiy, obyektiv jihati doimo ruhiy jarayonlar bilan qo'shilgan holda mavjud bo'lib, biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydi. Bu har qanday faoliyatga tegishli, lekin ta'lim oluvchilar, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar faoliyatiga ko'proq tegishli. Pedagogik jarayonni psixologik mehanizimlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Odamning shaxs sifatidagi eng asosiy belgisi – uning individualligi. Individuallik shaxs psixologik hususiyatlarining qaytarilmaydigan birikmasi bilan ifodalaniladi. Shaxsga ta'sir qilayotgan barcha omillar uning umri davomida moddiy va ma'naviy dunyoni hamda o'zligini anglashga, ularga javob reaksiyasini namoyon qilishga va axborotlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shaxsning nisbatan barqaror va nisbatan o'zgaruvchanlik hususiyatlari shaxs hislatlarining bir butunligini va o'zaro bog'ligidan iborat bo'lgan murakkab birlikni, ya'ni uning dinamik tuzilmasini hosil qiladi. Shaxsning harakatlanuvchi kuchlarning va psixologik tuzilishini hamda faollik manbalarini 3 asosiy omil bilan bog'lab o'rganiladi: Tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit. Shaxsga umri davomida tizimli tarzda va uzliksiz maromda beriladigan ta'lim tarbiya. Odamga tug'ma ravishda beriladigan nasliy hususiyatlar. Psixologlar ta'lim–tarbiya jarayonlarining obyektleri va subyektleri hisoblanadigan shaxs xaritasini bir qator elementlarini e'trof etadilar.

Psichologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vocal, artistlik, badiiy, texnik, matematik, adabiy, ilmiy, pedagogik, tashkilotchilik, axloqiy, huquqiy jihatlarni, tavsifning umumiy xislatlari esa insonparvarlik, vatanparvarlik, soflik, g'ayratlilik, faollik, uyushqoqlik, optimizm, ko'ngilchanlik, kabi individual xususiyatlarni qayd etishgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi islohotlarning natijasi o'laroq, psixologik-pedagogik tashxis xizmatining keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi sodir bo'ladi. Psichologlar qobiliyatning namoyon bo'lishida psixomotor, musiqiy, vokal, adabiy-ilmiy, pedagogik, axloqiy me'yorlar asosida sodir bo'luvchi eng muhim tushunchalar bilan birgalikda anglanadi. Pedagogik texnologiyalardan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimi-ni boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin, yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jihozlash, ta'lim tizimi mazmuni, uni tashkil etish shakillari hamda sifatini oshirish borasida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi va bermoqda.

Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga hos hususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan, innovatsion texnologiyalar orasida o'rni kattadir. Pedagogik faoliyatda qo'llaniladigan har qanday texnologiyaning ishonchliligi, samaradorligi va uning chin zaruriyatini aniqlashda tajriba-sinov ishlari muhim ahamiyatiga ega.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Aripov M., Begalov B., Begimqulov Sh., Mamarajabov M.. Axborot texnologiyalari. – T.: Noshir, 2009. – 368 b.
2. Batorowska H. Information culture in the perspective of changes in education. Warszawa, Poland: Wydawnictwo Stowarzyszenia Bibliotekarzy Polskich, 2009. (in Polish).
3. Brainerd S.I. (ed.). Recent Advances in Cognitive-developmental Theory. Progress in Cognitive Development Research. N. Y., 1983. XII. 270 p.
4. Bryant S. The Story of the Internet. – Madrid: Pearson Education Ltd., 2000. – P. 10.
5. Choo C.W., Bergeron P., Detlor B., & Heaton L. (2008). Information culture and information use: An exploratory study of three organisations. *Journal of the American Society for Information Science and Technology*, 59 (5), 792-804.
6. Curry A. & Moore, C. (2003). Assessing information culture: An exploratory model. *International Journal of Information Management*, 23(2), 91-106. Retrieved May 24, 2005, from http://www.sciencedirect.com/science?_ob=ArticleURL&_udi=B6VB4-47XVXXR3&_coverDate=04%2F30%2F2003&_alid=404933805&_rdoc=1&_fmt=&_orig=search&_qd=1&_cdi=5916&_sort=d&view=c&_acct=C000011918&_version=1&_urlVersion=0&_userid=143908&md5=2ea003049eb475235e2f6fa54f0675d2
7. Dymmel S. Kotuła and A. Znajomski. Readership and information culture, theory and practice. Lublin, Poland: Selected Issues, UMCS, 2015. (in Polish).